



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	



O'ZBEKISTON SSRDA TA'LIM ISLOHOTLARI DAVRIDA PEDAGOGIKA BILIM YURTLARI FAOLIYATIDA O'QITUVCHILARNI TAYYORLASH JARAYONLARI VA AMALIY MUAMMOLAR

Mamatkulova Maxfuza Kozimovna

Andijon viloyati Asaka tumani
4-sonli texnikum tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish davrida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash jarayonlari, ushbu jarayonda yuzaga kelgan metodologik, iqtisodiy va psixologik muammolar tahlil qilinadi. Muallif o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarining tashkil etilishi, savodsizlikni tugatish (likbez) kampaniyasidagi o'qituvchilarning o'rni hamda o'sha davrdagi qiyinchiliklarning bugungi kundagi lotin yozuviga to'liq o'tish jarayoniga tatbiqi masalalarini ilmiy-tarixiy nuqtayi nazardan yoritib beradi.

Kalit so'zlar: alifbo islohoti, lotin, kirill, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, savodsizlikni tugatish, metodologiya, ta'lim tizimi, XX asr, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the processes of retraining teaching staff in Uzbekistan during the transition from the Arabic script to the Latin script in the 1920s-1930s, as well as the methodological, economic, and psychological problems that arose during this process. From a scientific and historical perspective, the author examines the organization of teacher retraining courses, the role of teachers in the campaign for the elimination of illiteracy (likbez), and the application of the experience and difficulties of that period to the present-day process of full transition to the Latin script.

Key words: alphabet reform, Latin script, Cyrillic script, teacher retraining, elimination of illiteracy, methodology, education system, 20th century, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы переподготовки педагогических кадров в Узбекистане в 20-30-е годы XX века в период перехода с арабской письменности на латинскую, а также методологические, экономические и психологические проблемы, возникшие в ходе данного процесса. Автор с научно-исторической точки зрения освещает вопросы организации курсов переподготовки учителей, роли педагогов в кампании по ликвидации неграмотности (ликбез), а также применения опыта и трудностей того периода к современному процессу полного перехода на латинскую письменность.

Ключевые слова: реформа алфавита, латиница, кириллица, переподготовка учителей, ликвидация неграмотности, методология, система образования, XX век, Узбекистан.

KIRISH

XX asr boshlari O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilishlar davri sifatida tarixga kirdi. Bu davr nafaqat davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlar, balki milliy o'zlikni anglash, ma'rifat va ta'lim taraqqiyotida yangi sahifalar ochdi. O'sha davrda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish masalasi shunchaki texnik yoki grafik o'zgarish emas, balki jamiyatni modernizatsiya qilish, savodsizlikni tugatish va o'zbek tilini jahon ilm-fani talablariga moslashtirish yo'lidagi strategik qadam edi. Bu ulug'vor vazifani amalga oshirishda esa eng og'ir yuk pedagogik bilim yurtlari va o'qituvchilar tayyorlash kurslari zimmasiga tushgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ma'rifatli jamiyat qurishning asosiy poydevori - bu ta'lim va madaniyatdir ^[1]. Biz o'z tariximizga nazar tashlar ekanmiz, ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy boyliklarni anglash va ularni zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilib qo'yganmiz". Bu so'zlar aynan o'tgan asr boshida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'ygan ma'rifatparvarlarning ham ezgu niyatlarini ochib beradi, chunki o'sha davrda milliy pedagogik bilim yurtlari xalqni ilm-fanga yaqinlashtiruvchi asosiy ilm o'chog'iga aylangan edi.



Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asrning 20-yillarida ommaviy savodsizlikni bartaraf etish va yangi alifboga o'tish jarayoni o'qituvchilar yetishmovchiligi kabi jiddiy muammoga duch keldi. Shu bois pedagogik bilim yurtlarining tashkil etilishi va ularning faoliyati tarixiy zarurat sifatida baholanadi. Mazkur ta'lim maskanlari mohiyatan o'quvchilarga ilm berish bilan birga, yangi yozuvni o'rgatuvchi metodist-kadrlar va targ'ibotchilarni tayyorlaydigan strategik markazlarga aylandi.

Prezidentimizning ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmon va qarorlari bugungi kunda yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday islohotning, jumladan, alifbo va ta'lim modernizatsiyasining muvaffaqiyati bevosita pedagogik bilim yurtlarining salohiyati va kadrlar tayyorlash sifatiga bog'liq. XX asrning 20–30-yillaridagi pedagogika bilim yurtlarining faoliyati, u davrda duch kelingan metodologik muammolar, kadrlar yetishmovchiligi va ularni bartaraf etish tajribasi bugungi kun islohotchilari uchun o'ziga xos "tarixiy darslik" vazifasini o'taydi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyati, o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar masalasi bevosita yoki bilvosita ko'plab o'zbekistonlik tarixchi, pedagog va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Bu mavzuni o'rgangan tadqiqotchilarni ilmiy yo'nalishlari va davriga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib tahlil qilish mumkin:

- 1. Sovet davrida tadqiq qilgan mualliflar.** Bu mavzu asosan partiya siyosati va xalq ta'limi yutuqlarini targ'ib qilish ruhida o'rganilgan. O'sha davrda pedagogik kadrlar tayyorlash tarixi bilan shug'ullangan S. Rajabov, M. Rajabov, U. Sodiqov kabi olimlarning asarlarida O'zbekistonda xalq ta'limi tizimining rivojlanishi, pedagogika bilim yurtlari (uchilishlari)ning tashkil topishi va ularning respublika maktablarini o'qituvchilar bilan ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Bu tadqiqotlarda asosan statistik ma'lumotlarga tayanilib, o'qituvchilar sonining ortishi, o'quv yurtlari tarmog'ining kengayishi ijobiy natija sifatida ko'rsatilgan. Garchi bu asarlarda tanqidiy qarashlar bo'lmasa-da, ular tarixiy faktlar va raqamlarni to'plashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.
- 2. Mustaqillik davri pedagogik-tarixiy maktabi vakillari.** Mustaqillik yillarida sovet rejimining ta'lim sohasidagi siyosatini xolis, tanqidiy va ilmiy asosda o'rganish boshlandi. Bu yo'nalishda bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib bordilar. Prof. Q. Xonnazarov, S. Otamurodov kabi olimlar sovet davridagi mafkuralashtirilgan ta'lim tizimi, uning milliy kadrlar tayyorlashga yetkazgan zararlari hamda pedagogik kadrlar siyosatining ziddiyatlarini o'z tadqiqotlarida ochib berdilar. O'zbekistonda pedagogik ta'lim tarixi va o'qituvchilar tayyorlash masalalarini maxsus o'rgangan pedagogika fanlari doktorlari va nomzodlari (masalan, S. Rajabovning keyingi davrdagi ishlari, U. Mahkamov, M. Inoyatova, B. Xodjayev va boshqa pedagogika tarixchilari) o'qituvchilar tayyorlash tizimining shakllanishi, mazmuni va muammolariga to'xtalib o'tganlar.

Ayniqsa, XX asrning 20-80-yillaridagi xalq ta'limi tarixi, o'qituvchi kadrlar taqchilligi, qishloq maktablari uchun kadrlar tayyorlashdagi qiyinchiliklar va o'rta maxsus pedagogik ta'lim muammolari bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida (masalan, tarix va pedagogika fanlari yo'nalishidagi mustaqil tadqiqotchilarning ishlarida) o'z aksini topgan.

Mazkur maqola o'sha davrdagi pedagogik bilim yurtlarining tashkil topishi va ularning milliy kadrlar tayyorlashdagi tarixiy ahamiyatini tahlil qilish orqali ta'lim tizimidagi tub islohotlarning amaliy ijrosida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini ilmiy asoslashga bag'ishlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda XX asrning 20-30-yillarida O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan ta'lim va alifbo islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyati hamda o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarini o'rganishda tarixiy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik tahlili, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida pedagog kadrlar tayyorlashdagi metodik, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida mazkur tarixiy tajribaning ta'lim islohotlari uchun ahamiyati umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aslida XX asrning 20-30-yillari O'zbekiston SSR ta'lim tizimi uchun tub burilish va keskin islohotlar davri bo'ldi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida amalga oshirilgan ma'rifiy o'zgarishlar, xususan, "madaniy inqilob" siyosati va arab alifbosidan lotin grafikasiga o'tish jarayoni ta'lim muassasalari, eng avvalo, pedagogika bilim



yurtlari oldiga favqulodda murakkab vazifalarni qo'ydi ^[5]. O'sha davrda respublikada savodsizlikni tugatish va yangi turdagi sovet maktablari uchun milliy kadrlar tayyorlash zarurati pedagogika texnikumlari va bilim yurtlarini (faqatgina o'qituvchi yetishtiruvchi maskan emas, balki mafkuraviy va metodik markaz sifatida) jadallik bilan kengaytirishni talab qildi.

Biroq pedagogika bilim yurtlarining faoliyatini tashkil etish jarayoni jiddiy tizimli va amaliy muammolarga duch keldi. Birinchidan, malakali professor-o'qituvchilar va mutaxassis kadrlarning keskin yetishmovchiligi sezildi. Eski tizimda ta'lim olgan ziyolilarning bir qismi yangi mafkuraviy talablarga moslasha olmagan bo'lsa, boshqalari yangi pedagogik metodikalarni yetarli darajada egallamagan edilar. Ikkinchidan, moddiy-texnik baza, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yo'qligi o'quv jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi ^[6]. O'zbek tilidagi metodik adabiyotlarning deyarli mavjud emasligi, rus tilidan qilingan tarjimalarning esa mahalliy sharoitga va o'quvchilarning dunyoqarashiga mos kelmasligi o'qituvchilar tayyorlash jarayonini qiyinlashtirdi ^[10].

Shuningdek, qishloq joylarida qizlar va mahalliy millat vakillaridan iborat pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi ijtimoiy-siyosiy qarshiliklar, mavjud mentalitet va patriarxal qarashlar tufayli jiddiy to'siqlarga uchradi. Pedagogika bilim yurtlariga o'qishga qabul qilingan yoshlarning umumiy boshlang'ich tayyorgarligi pastligi o'quv muddatlarini qisqartirib, tezlashtirilgan qisqa muddatli kurslarga o'tishni majburiy qildi, bu esa tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Shu boisdan ham o'tgan asrning 20–30-yillaridagi pedagogik kadrlar tayyorlash tajribasi zamonaviy ta'lim islohotlari uchun muhim tarixiy saboq bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoni va amaliy muammolar: tarixiy tahlil sifatida 1920-yillarning o'rta-larida O'zbekistonda amalga oshirilgan alifbo islohoti nafaqat lingvistik, balki o'ta murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon edi. Yangi lotin alifbosiga (o'sha davrdagi atamasi bilan -yanalif) o'tish masalasi kun tartibiga chiqqach, ta'lim tizimida fundamental muammo yuzaga keldi: o'qituvchilarning mutlaq ko'pchiligi yangi yozuvda savodli emas edi. Bu holat butun ta'lim tizimini falajlash xavfini tug'dirgan ^[4].

1. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash mexanizmlari

XX asrning 20-yillari o'rta-larida arab yozuvidan lotin grafikasiga o'tish masalasi texnik jarayondan ijtimoiy-siyosiy aksiyaga aylandi. Islohot muvaffaqiyati bevosita maktablarning yangi yozuvni o'zlashtirish tezligiga bog'liq edi. 1926-yilda o'tkazilgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyidan so'ng O'zbekiston SSRda o'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni yangi alifboga o'rgatish bo'yicha intensiv choralar ko'rildi.

Xalq maorifi komissarligi (Narkompros) qoshida maxsus komissiyalar tuzilib, qisqa muddatli (2-4 haftalik) "alifbo kurslari" tashkil etildi. Ushbu kurslarda nafaqat grafika, balki yangi imlo qoidalar va o'qitish metodikasi ham majburiy tarzda o'rgatildi ^[3]. 1928-yilga kelib, mamlakat bo'ylab "Yangi alifbo o'qituvchilarini tayyorlash kurslari" tizimi to'liq ishga tushirildi va bu o'qituvchilarning asosiy vazifasi qilib belgilandi ^[8].

Savodsizlikni tugatish (likbez) kampaniyasi doirasida o'qituvchilar uchun shoshilinch ravishda qisqa muddatli kurslar va seminarlar tarmog'i yaratildi. Tarixiy arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1928-yilda O'zbekiston SSR bo'yicha minglab o'qituvchilar intensiv kurslarga jalb qilingan. Xususan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona shaharlarida pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha markaziy kurslar ochilib, ularda lotin yozuvi grafikasi, imlo qoidalar va o'qitish metodikasi o'rgatilgan ^[6]. Biroq o'qituvchilarning kundalik ish faoliyati bilan bir qatorda bu kurslarda o'qishlari ularning jismoniy va ruhiy toliqishiga olib keldi.

2. Amaliy muammolar va qiyinchiliklar

Metodologik va ilmiy-uslubiy bazaning yetishmasligi. Yangi alifboga o'tish shoshilinch tarzda amalga oshirilganligi sababli, o'qitish uchun zarur bo'lgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va pedagogik metodikalar tayyor emas edi. Ko'plab o'qituvchilar lotin yozuvidagi darsliklar nashr etilguncha qo'lbola usullar bilan, ba'zan esa "o'quvchi bilan birga o'rganish" tamoyili asosida dars o'tishga majbur bo'lishdi ^[7]. Yangi yozuv uchun darsliklar va lug'atlar tizimli ravishda nashr etilmagan edi. Ko'plab o'qituvchilar darslarni "shaxsiy tajriba" yoki "o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini lotin grafikasi bilan moslashtirishga urinish" orqali o'tishga majbur bo'lishdi. Bu esa o'quv jarayonida imlo xatolarining ko'payishiga va o'qituvchilarning ish samaradorligi pasayishiga olib keldi.

Kadrlar yetishmovchiligi va iqtisodiy omillar. O'sha davr pedagoglarining aksariyati eskirgan, an'anaviy arab yozuvi maktabida ta'lim olgan mutaxassislar edi. Ularni yangi grafikaga moslashtirish nafaqat vaqt, balki katta moddiy resurslarni talab qilardi. O'qituvchilarning moddiy ta'minoti pastligi va kurslarning intensivligi tufayli pedagoglar o'rtasida "o'qishdan bo'yin tovlash" holatlari ham kuzatilgan ^[6].

Psixologik qarshilik va ideologik tafovut. Jamiyatning konservativ qatlami, jumladan, eski usul maktablarida ta'lim olgan ba'zi o'qituvchilar lotin yozuviga o'tishni "ma'naviy ildizlardan uzilish" va "madaniy qadriyatlariga tajovuz" deb baholadilar. Bu qarashlar ta'lim muassasalarida yashirin noroziliklarga va ba'zi hollarda o'qituvchilarning tizimdan chetlatilishiga sabab bo'ldi. O'qituvchilar o'z ona tili bo'lgan o'zbek tilini yangi yozuvda yozishda fonetik qoidalarni to'liq o'zlashtira olmay, qiyinchiliklarga duch keldilar. Jamiyatning an'anaviy qismida lotin yozuviga o'tish - ma'naviy-madaniy merosdan uzilish sifatida qabul qilindi. Ba'zi o'qituvchilar lotin grafi-



kasini “yot madaniyat unsuri” deb hisoblab, yashirin qarshilik ko’rsatishgan. Davriy matbuotdagi tanqidiy maqolalarda o’qituvchilarning ushbu “konservativ qarashlari” ularning yangi alifboga o’tish sur’atini sekinlashtiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd etilgan ^[12].

Demak, 1920-yillarda o’qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoni g’oyatda qisqa muddatlarda va murakkab sharoitlarda kechdi ^[11]. Metodologik tayyorgarlikning pastligi va kadrlar yetishmovchiligi mazkur islohotning ilk bosqichlarida sifat darajasiga salbiy ta’sir ko’rsatgan bo’lsa-da, bu jarayon o’zbek maorifi tarixida savodxonlikni ommalashtirishda muhim qadam bo’lib xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XX asrning 20-30-yillarida O’zbekistonda amalga oshirilgan alifbo islohoti - arab yozuvidan lotin yozuviga (yanalif) o’tish jarayoni o’zbek davlatchiligi va madaniyati tarixidagi eng murakkab hamda ko’lamli sotsiomadaniy tadbirlardan biri bo’ldi. Mazkur tadqiqot tahlillari shuni ko’rsatadiki, islohotning muvaffaqiyati nafaqat siyosiy iroda, balki pedagogik kadrlarning yangi sharoitga qay darajada moslashuvi bilan bevosita bog’liq bo’lgan.

O’qituvchilarni qayta tayyorlash jarayoni o’z mohiyatiga ko’ra shunchaki yangi grafika elementlarini o’rgatishdan iborat bo’lmay, balki butun bir pedagogik tafakkurni transformatsiya qilishni taqozo etdi. O’sha davrda yuzaga kelgan metodologik tanqislik, kadrlar resursining yetishmovchiligi va ijtimoiy-psixologik qarshiliklar islohot jarayonining ilk bosqichlarida ma’lum bir “pedagogik inqiroz”ni keltirib chiqargan bo’lsa-da, bu to’siqlar ta’lim tizimini yangilash uchun zamin yaratdi. Arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari shundan dalolat beradiki, o’qituvchilarning intensiv kurslarda o’qitilishi mamlakatda savodxonlik darajasini keskin oshirib, milliy pedagogikaning yangi metodik bazasini shakllantirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda O’zbekistonda lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosiga to’liq o’tish jarayoni kechayotgan bir davrda XX asr boshidagi tarixiy tajriba alohida ahamiyat kasb etadi. O’sha davr islohotchilarining kadrlar tayyorlashda yo’l qo’ygan xatolari - ya’ni ta’lim tizimini puxta metodologik asoslarsiz, shoshilinch ravishda yangi grafika bilan ta’minlashga urinish, o’qituvchilarning malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy omillarni e’tiborsiz qoldirish kabi xatolarni bugungi kunda takrorlamaslik zarur.

Zamonaviy tilda aytganda, alifbo islohoti muvaffaqiyati - “kadrlar salohiyati + ilmiy-metodik ta’minot + ijtimoiy qo’llab-quvvatlash” tenglamasiga asoslanadi. Shu boisdan, hozirgi kunda pedagoglarning yangi yozuvdagi savodxonligini oshirishda nafaqat texnik yondashuv, balki ularning ruhiy va kasbiy tayyorgarligini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg’unlashtirishni ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, tarix - bu shunchaki o’tmish hodisalari yig’indisi emas, balki bugungi va kelajakdagi qarorlar uchun darslikdir. XX asr boshidagi alifbo islohoti saboqlari shuni ko’rsatadiki, har qanday madaniy inqilobning muvaffaqiyati uning zahirida turgan pedagogik tizimning qanchalik mustahkam ekanligi bilan o’lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. - Toshkent: O’zbekiston, 2017. - B. 89.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbek tili taraqqiyoti va uni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o’rnini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5850-son Farmoni // Xalq so’zi, 2019-yil 22-oktabr.
3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-86-fond, 1-ro’yxat, 24-yig’ma jild, 12-bet.
4. O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, R-86-fond, 1-ro’yxat, 32-yig’ma jild, 45-bet (1926-yilgi kurslar to’g’risidagi hisobot).
5. Abdullayev M. Alifbo islohoti: muammolar va yechimlar. - Toshkent: O’qituvchi, 1998. - B. 56-57.
6. M.Ergasheva. XX asrning 20-30-yillarida Ўзбекистон маориф тизими тарихига оид манбалар таҳлили. Общество и инновации. № 6 В - 25.
7. Rajabov Q. O’zbekistonda ta’lim tizimi: tarix va zamonaviylik. -Toshkent: Fan, 2012. - B. 78.
8. Rajabov Q. Turkistonda sovet hokimiyatining ma’rifat siyosati va uning oqibatlari. - Toshkent: Akademnashr, 2012. - B. 45-48.
9. Inoyatov S. O’zbekiistonda madaniy qurilish tarixi (1917-1941 yy.). - Toshkent: Fan, 1975. - B. 112-115.
10. Qodirov A. O’zbekiston maktablari va pedogogik kadrlar tayyorlash tizimi tarixidan. // O’zbekiston tarixi jurnali. - Toshkent, 2005. - № 2. - B. 34-39.
11. Qosimov B. XX asr boshlari o’zbek maorifi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2005. - B. 145.
12. Qizil O’zbekiston gazetasi, 1929-yil 12-yanvar, (“Yangi alifbo va unga qarshi kurashayotgan eskilar”).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.